Dastlabki ma’lumotlar

# 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida Navoiy viloyatining qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi

Dastlabki ma’lumotlarga koʻra, 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 19 693,7 mlrd. soʻmni yoki 2022- yilning shu davriga nisbatan 101,9 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar 18 488,7 mlrd. soʻmni (102,0 %), oʻrmon xoʻjaligi – 911,3 mlrd. soʻmni (102,4 %), baliqchilik xoʻjaligi – 293,7 mlrd. soʻmni (97,9 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi tarkibida Navoiy viloyatining ulushi 4,6 % ni tashkil etdi.




**19 693,7** — Navoiy viloyati boʻyicha qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. soʻm

| | | |
|---|---|---|
| 01 | 18 488,7 | Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar |
| 02 | 911,3 | Oʻrmon xoʻjaligi |
| 03 | 293,7 | Baliqchilik xoʻjaligi |

# Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘sish sur’ati




# Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi, (% da).



2023- yilning yanvar- dekabr oylari yakunlariga koʻra, qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat) lar umumiy hajmining 93,9 % –dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar, 4,6 % – oʻrmon xoʻjaligi, 1,5 % – baliqchilik xoʻjaligi hissasiga toʻgʻri keladi.

## Shahar va tumanlar kesimida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi (mlrd.soʻm)




2023- yilning yanvar- dekabr oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat) larining eng yuqori hajmi Xatirchi (6 105,6 mlrd. soʻm), Qiziltepa (3 810,4 mlrd. soʻm) va Navbahor (3 055,4 mlrd. soʻm) tumanlariga qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Navoiy (99,1 mlrd. soʻm), Gʻozgʻon shahar (94,0 mlrd. soʻm), Zarafshon (75,8 mlrd. soʻm),larini keltirib oʻtish mumkin.

Yuqori oʻsish surʼati Gʻozgʻon shahrida (108,4 %), Zarafshon shahri (105,5 %), Tomdi (105,5 %), Konimex (104,3 %), Nurota (103,6 %), Uchquduq (103,4 %), Karmana (102,4 %), Xatirchi (101,9 %) tumanlarida, hamda Navoiy shahri (101,6 %), Navbahor (101,2 %), Qiziltepa (100,1 %) tumanlarida esa past surʼatlar kuzatildi.

## Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining o‘sish sur’ati, (%) da




## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari

2023- yilning yanvar- dekabr oylarida yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 18 183,5 mlrd. so‘mni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 102,0 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 6 300,6 mlrd. so‘mni (98,0 %), chorvachilik mahsulotlari 11 882,9 mlrd. so‘mni (103,9%) tashkil qildi.

## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



## Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining tumanlar kesimida taqsimlanishi (%) da




## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi




Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 72,0 % i – dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 21,1 % i – fermer xo‘jaliklariga, 6,9 % i – qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

## Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining tumanlar bo‘yicha xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%) da




2023- yilning yanvar- dekabr oylari yakuniga ko‘ra yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo‘jaliklarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Qiziltepa tumanida (32,4 %), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Uchquduq tumanida (87,2 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Navoiy shahrida (41,6 %) qayd etildi.

# Dehqonchilik

2023- yilning yanvar- dekabr oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 6300,6 mlrd. so‘mni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 98,0% ni tashkil etdi. Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 34,6 % ni tashkil qildi.

## Donli ekinlar

**Hajmi, ming tonna.**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**









2023- yilning yanvar- dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 258,1 ming tonna don (2022- yilning yanvar- dekabriga nisbatan 2,4 % ga ko‘p) yetishtirildi. Don yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, don yetishtirish umumiy hajmidan 85,9 % i fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



# Navoiy viloyati bo‘yicha donli ekinlar yetishtirish hajmi, tonna



# Kartoshka

**Hajmi, ming tonna.**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**









2023- yilning yanvar- dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 88,1 ming tonna kartoshka (2022- yilning yanvar- dekabriga nisbatan 4,8 % ga ko‘p) yetishtirildi. Kartoshka yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, kartoshka yetishtirish umumiy hajmidan 85,5 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Navoiy viloyati bo‘yicha kartoshka yetishtirish hajmi, tonna



# Sabzavotlar

**Hajmi, ming tonna.**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xoʻjalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**









2023- yilning yanvar- dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 335,0 ming tonna sabzavotlar (2022- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 4,6 % ga ko‘p) yetishtirildi. Sabzavot yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sabzavot yetishtirish umumiy hajmidan 75,4 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Navoiy viloyati bo‘yicha sabzavotlar yetishtirish hajmi, tonna



# Poliz ekinlari

**Hajmi, ming tonna.**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**









2023- yilning yanvar- dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 104,6 ming tonna poliz ekinlari (2022- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 4,4 % ga ko‘p) yetishtirildi. Poliz ekinlarini yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, poliz yetishtirish umumiy hajmidan 59,2% i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Navoiy viloyati bo‘yicha poliz ekinlari yetishtirish hajmi, tonna



# Meva va rezavorlar

**Hajmi, ming tonna.**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**









2023- yilning yanvar- dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 106,2 ming tonna meva va rezavorlar (2022- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 5,1 % ga ko‘p) yetishtirildi. Meva va rezavorlar yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, meva va rezavorlar yetishtirish umumiy hajmidan 57,8 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Navoiy viloyati bo‘yicha meva va rezavorlar yetishtirish hajmi, tonna



# Uzum

**Hajmi, ming tonna.**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**









2023- yilning yanvar- dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 85,6 ming tonna uzum (2022- yilning yanvar- dekabriga nisbatan 94,0 % ni) tashkil etdi. Uzum yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, uzum yetishtirish umumiy hajmidan 57,8% i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



# Navoiy viloyati bo‘yicha uzum yetishtirish hajmi, tonna



## Chorvachilik

2023- yilning yanvar- dekabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 11 882,9 mlrd. so‘mni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 103,9 % ni tashkil qildi. Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 65,4 % ni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste’mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.




2023- yilning yanvar- dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 188,3 ming tonna go‘sht (2022- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 3,7 % ga ko‘p), 539,3 ming tonna sut (3,5 % ga ko‘p), 406,7 mln. dona tuxum (5,5 % ga ko‘p) yetishtirildi va 13,7 ming tonna baliq ovlandi.

# Go‘sht (tirik vaznda)

**Hajmi, ming tonna.**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023- yilning yanvar- dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 188,3 ming tonna go‘sht (2022- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 3,7 % ga ko‘p) yetishtirildi. Go‘sht yetishtirish ko‘rsatkichlari xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, go‘sht yetishtirish umumiy hajmidan 84,0 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelganini qayd etish zarur.



## Navoiy viloyati bo‘yicha go‘sht *(tirik vaznda)* yetishtirish hajmi, tonna



# Sut

### Hajmi, ming tonna.




### O‘sish sur’ati




### Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning yanvar- dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 539,3 ming tonna sut (2022- yilning yanvar- dekabriga nisbatan 3,5 % ga ko‘p) yetishtirildi. Sut yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sut yetishtirish umumiy hajmidan 91,4 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Navoiy viloyati bo‘yicha sut yetishtirish hajmi, tonna



# Tuxum

**Hajmi, mln. dona**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




Fermer xo‘jaliklari

Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning yanvar- dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 406,7 mln. dona tuxum (2022- yilning yanvar- dekabriga nisbatan 5,5 % ga ko‘p) yetishtirildi. Tuxum yetishtirish ko‘rsatkichlari xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, tuxum yetishtirish umumiy hajmidan 69,1 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keldi.



## Navoiy viloyati bo‘yicha tuxum yetishtirish hajmi, ming dona



# Baliq ovlash

**Hajmi, tonna.**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023- yilning yanvar- dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 13 743,0 tonna (2022- yilning yanvar- dekabriga nisbatan 97,6 % ) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 73,3 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri kelganini ta’kidlash lozim.



## Navoiy viloyati bo‘yicha ovlangan baliq hajmi, tonna



## Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2024- yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 8,8 % i fermer xo‘jaliklari hissasiga, 88,3 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 2,9 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim, shunga mos ravishda qo‘y va echkilarning umumiy sonidan 27,8 % i fermer xo‘jaliklariga, 57,0 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 15,2 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g’ri keladi shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 12,9 % i fermer xo‘jaliklariga, 51,2 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 35,9 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi.

2024- yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 545,9 ming taga yetdi. 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 4,3 ming taga (0,8 %) ko‘paydi.

## Yirik shoxli qoramollar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**









2024- yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 88,3 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



# Navoiy viloyati bo‘yicha yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni, ming bosh



2024- yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiy bosh soni 221,5 ming taga yetdi. 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni (2,7 %) ga ko‘paydi.

## Sigirlar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




Fermer xo‘jaliklari

Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024- yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra, sigirlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 90,8 % i dehqon dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Navoiy viloyati bo‘yicha sigirlarning umumiy bosh soni, ming bosh



2024- yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 2 427,4 ming taga yetdi. 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilar bosh soni 48,6 ming taga (2,0 %) ko‘paydi.

## Qo‘y va echkilar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**






2024- yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilarning 57,0 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Navoiy viloyati bo‘yicha qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni, ming bosh



2024- yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni 22 223 taga yetdi. 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni 686 taga (3,2 %) ko‘paydi.

## Otlar

**Soni, bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh soninig xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**






2024- yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra, otlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami otlarning 49,0 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Navoiy viloyati bo‘yicha otlarning umumiy bosh soni, bosh



2024- yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni 3 487,8 ming taga yetdi. 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni 84,0 ming taga (2,5 %) ko‘paydi.

## Parrandalar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**









2024- yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra, parrandalar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 51,2 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Navoiy viloyati bo‘yicha parrandalarning umumiy bosh soni, ming bosh




Qishloq xo‘jaligi va ekologiya statistikasi bo‘limi
• 79- 223-23-40